



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**



**“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI
O‘QITISH METODIKASINING
DOLZARB MASALALARI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI



Digital object
identifier



Google
Scholar



OpenAIRE

Toshkent-2026

**“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Toshkent, O‘zbekiston

2026-yil 17-aprel

**“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



**O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING
DOLZARB MASALALARI**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent, O‘zbekiston

COLLECTION OF MATERIALS
from the republican scientific and practical conference
**CURRENT ISSUES OF UZBEK LITERATURE AND ITS
TEACHING METHODOLOGY**

Tashkent, Uzbekistan

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
республиканская научно-практической конференции
**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИТЕРАТУРЫ
УЗБЕКИСТАНА И МЕТОДИКИ ЕЕ ПРЕПОДАВАНИЯ**

Ташкент, Узбекистан

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



“O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari” / –Toshkent. – 2026. – 538 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasidan tomonidan “O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari” mavzusida 2026-yil 17-aprelda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan. Maqola va tezislarning mazmuni, uslubi va imlosiga, keltirilgan ma’lumotlarga mualliflarning o‘zlari mas’ul.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriyat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19810057>

Mas’ul muharrir:

Sohiba Umarova,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

Quvonch Mamiraliyev

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Husan Maqsudov

katta o‘qituvchi

Tahrir hay’ati:

N.Jumaxo‘ja – filologiya fanlari doktori, professor

Ro‘za Niyozmetova – pedagogika fanlari doktori, professor

Marg‘uba Abdullayeva – filologiya fanlari doktori, professor

Tozagul Matyoqubova – filologiya fanlari doktori, dotsent

Saodat Qambarova – pedagogika fanlari doktori, professor v.b.

Hoshimjon Ahmedov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Shoira Isayeva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Iroda Ishonxonova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Oqila To‘raqulova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mahfuza To‘ychiyeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Muhayyo Yo‘ldosheva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Matluba Jabborova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Surayyo Inomjonova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Nasiba Jo‘raqulova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahliyo Eliboyeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sevinch Yoqubova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Oysuluv Musurmonqulova – katta o‘qituvchi

Dilafro‘z Nazarova – katta o‘qituvchi

O‘tkir Yo‘ldoshev – katta o‘qituvchi

Dilnavoz Boyzoqova – o‘qituvchi

© **Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2026**

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



3. Xoja Ubaydulloh Ahror “Risolai volidiyya” – T.: “Yangi asr avlodi”, 2014.
4. Ibrohim Haqqul “Navoiyga qaytish” 3 – T.: “Tafakkur”, 2016
5. Hamidulla Boltaboyev “Islom tasavvufi manbalari” – T.: “O‘qituvchi”, 2005

NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI

Xayrullayev Azamat,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Qodiriyning “Uloqda” Normurod Norqobilovning “Oriyat”, “Erkak”, Xesh” va Nabi Jaloliddinning “Erkagi bor uy” hikoyalarida bola ruhiyati tasviri, hikoya konfliktining vujudga kelishi, detalning badiiy vasifalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: janr, syujet, struktura, badiiy tasvir, hikoya, konflikt, tugun, motiv, detal, psixologizm.

Hikoya hayot voqeligidan kichik bir epizodni epik planda aks ettirivchi, zamonaviy adabiyotning eng faol janrlaridan biri. Unda qalamga olinadigan hayot voqeligi fonida qahramon ruhiy olamini tasvirlash, xarakterini ochish hikoyaga xos yetakchi jihat ekanligi sir emas.

O‘zbek hikoyachiligi tarixi xalq nasri va mumtoz adabiyotimiz zamiridagi hikoyatlarni istisno etganda XX asrning ilk choragi, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho‘lpon ijodiga borib taqaladi. Biz bu o‘rinda Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida bola ruhiyati tasviri va ayni usul bugungi kun hikoyachigida, xususan, Normurod Norqobilov ijodida qay yo‘sinda akslanishi xususida fikr yuritmoqqa urinamiz.

Negaki, Normurod Norqobilovning “Ro‘mol”, “Kapalak” hikoyalaridan tortib, bugungi kunga qadar yaratgan yigirmadan ortiq hikoyalarining qahramonlari bolalar bo‘lib, adib ular ruhiyatini, psixologiyasini san’atkorona tasvirlab keladi. Adib hikoyalari haqida so‘z borar ekan, uning ijodiga xos yana bir xususiyatni takidlash joiz.

Yozuvchi bugun yuzga yaqin hikoyalar yaratgan bo‘lsa, ularning katta qismida bolalar, chollar, yoki orkash ayollar obrazi gavdaladi (“Tungi mehmon”, “Buron qo‘pgan kun”). Bu qahramonlar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmaydigandek ko‘rinsa-da, adib ular nigohi orqali hayot voqeligini teran kuzatadi.

Turmushda ro‘y beradigan, boshqalar uchun arziyasdek ko‘ringan kichik voqealardan tortib, fojealargacha inson hayotida keskin burilishlar yasashi, “evrilishlar” sodir etishi tabiiy hol, albatta. Lekin inson ko‘nglida, ayniqsa, bola qalbida bunday voqelikni, bunday jarayonni ro‘y berishi qanday kechadi?

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Aytaylik, inson qaysi daqiqadan yoki lahzadan boshlab boladan katta odamga, shaxsga aylanadi?

Tabiat qonuniga binoan ushbu holat har bir insonda turlicha bo‘y ko‘rsatishi mumkin. Biroq, chinakam ijodkorgina bola psixologiyasida bir lahzada va keskinlik bilan sodir bo‘ladigan bunday jarayonni san‘atkor ko‘zi bilan ko‘radi, ilg‘aydi, anglaydi va hayot ziddiyat bilan uyg‘un holda qalamga oladi. Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi qahramoni Turg‘unboy ruhiyatida ham ayni jarayon kechadi. Katta hayot qarshisida turgan, o‘smir Turg‘unboy asarda tilga olingan, (tongdan ertasi kuni tongacha sodir bo‘ladigan) bir kunlik voqealar fonida ilk bor o‘lim bilan to‘qnash keladi.

Qodiriy hikoya so‘ngiga qadar, ya‘ni o‘lim bilan to‘qnashuvigacha qahramonini psixologik tayyorlab keladi. Dastlab uloq boshlanish oldidan olomon suhbatini tasviri beriladi “-biri: «o‘lib ketgan», — desa, ikkinchisi: «Tirik!» — deb qichqiradi”[1: <https://www.ziyouz.com>]. Undan so‘ng qiziq manzara, to‘mashabin-olamonga xos qiyofa mohirlik bilan tasvirlanadi.

“Hech narsa emas... Esonboyini ot bosipti!” Olamon “hech gapmas” deya Esonboyini unutadi.

“—O‘nta otning tagida qolsa ham hech gap emas-ku... — Umri boqi bo‘lsa hech gap emas.[1: - <https://www.ziyouz.com>]”

Yuqorida keltirganimiz, muallif tomonidan qo‘llagan so‘z o‘yini, tazod, Esonboyning “o‘lik”, “tirigi” xabari ertasi kun tongacha bola uchun noma‘lumligicha qoladi.

“Mening uyqum o‘chdi.”[1:-<https://www.ziyouz.com>] Qodiriy hikoya so‘ngida uch dona so‘z bilan bolaning ruhiyati tasvirini shunday chizadiki, o‘quvchi ko‘z oldida endi bola Turg‘unboy qayta ko‘rinmaydi. Mana shu uch jumlaning o‘zidayoq hikoyaning konflikti, kul‘minatsiyasi, yechimi jamlanadi.

Bola ruhiyati ifodasi, unda bir lahzada, keskinlik bilan ro‘y beradigan ayni jarayonni biz N.Norqobilovning “Oriyat” (“Chetdagi odam”), “Erkak”, “O‘g‘il”, “Xesh” va Nabi Jaloliddinning “Erkagi bor uy” hikoyalarida ham kuzatamiz. “Oriyat”, “Erkak”, “Xesh” va “Erkagi bor uy” hikoyalari syujeti bir motiv asosiga qurilgan bo‘lib, ularning qahramonlari taqdiridosh, qismatdoshlar yetim, otasiz yetim bolalarning motiv obrazi hisoblanadi. Ular hayotdagi singari qismatdoshlar sifatida oqibatsiz qarindoshlarning ta‘nalariyu, mehnati uchun minnat eshitishga, orsizlarning bevaga “olaqarash”lariga, qisqasi hayotning turfa tuqmoqlarini totishga majburdek go‘yo. Mualliflar naznida ularga ota meros bo‘lib faqat oriyatgina qolgan, xalos. “Oriyat” va “Erkagi bor uy” hikoyalaridagi bolalar alam, o‘ch olish harakati, “Erkak” bilan “Xesh”da esa bemehr qarindoshlardan norizoli jihatlaridan bir-biriga yaqin kelganday bo‘lishsada ammo, bu asarlarning asosiy leniyasi, chizig‘ini qahramonlarning er kishi, erkak bo‘lib evrilishi, ulg‘ayishi tashkil etadi. Bu

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



esa o‘z navbatida milliy koloritga, milliy psixologiyaga tayanilganligi bilan o‘ziga xoslikka ega.

“Erkak” hikoyasida yozuvchi otasining vafoti sabab turmish tashvishlari qarshisida yolg‘iz qolgan bolaning holatini chizar ekan, asarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tugundan boshlaydi. “-Uf-f, bu sag‘irlarniyam tashvishi toza jonga tegdi-da, lekin!.. Bu sovuqdan-sovuq iddaoli sas ammasi darvozasidan chiqib ulgurmay, bolakayning ortidan quvib yetdi va jimitdek yuragini tilkalab, ko‘zlarini yoshlatdi [2: 191].”

Shundan so‘ng yig‘lamoqdan beri bo‘lib uyiga qaytgan bola yana don to‘la qop bilan yakka qoladi. Asardagi har bir lavhani, ammasining uyi, bolaning ko‘cha va hovlisidagi hayollari, kechinmalari xullas, barcha epizodlarni bir qop don va tegirmon detallari bir butun qilib bog‘lab turadi. Hikoyada bolaning keskin o‘zgarishi, “evrilishi”ga sabab qilib tayyorlangan zaminni, psixologik holatni keltirib chiqaradigan quyidagi motiv va detallarni sanash mumkin:

- 1) otaning vofoti;
- 2) bolaning kichikligi (ojizligi emas);
- 3) qarindoshlarning bemehrligi;
- 4) tog‘aning olisda yashashi;
- 5) ilojsiz ona qiyofasi.

Hikoya syujetiga tayanadigan bo‘lsak bularni bari jamlanib qahramonni harakatga undagani ko‘ramiz. Muallif qahramonni ich-ichidan pishib yetilishi uchun psixologik zaminni puxta tayyorlaydi. Adabiyotshunoslik ilmida konfliktning uch ko‘rinishi farqlanadi, bular: 1) xarakterlararo; 2) qahramon va muhit; 3) ichki (psixologik) konflikt kabi turlari ekanligi ma‘lum. Asarda esa biz konfliktning turlarini o‘zaro aloqada va bir-birini taqozo etgan holda kelganini kuzatamiz.

Shu tariqa biz aytmoqchi bo‘lgan keskin o‘zgarish holati yuzaga keladi. Bolani birdan otasiga ergashib, ikki marta tegirmonga borib kelgani yodiga tushadi. Tegirmonga borib, tegirmonchiga “erkak”ligini, “oilaning bosh erkagi” ekanligini takror aytadi.

“Oriyat” hikoyasida qahramon Chori dononing “xiyonat” degan hitobidan ulgu olib, bolalarcha oriyat bilan o‘ch olish uchun “jinoyat” qiladi, Muso fermaning qizini boshini tosh bilan urib yoradi. Hikoyaning tugundan boshlanishi, muallifning o‘ziga xos uslubi, o‘quvchini tezda asar voqeligiga olib kiradi, uning o‘qimishliligini taminlaydi. Kutilmaganda qopning egasi kimligi ma‘lum bo‘lgunga qadar qahramon bolalarga xos jonli qiyofada harakat qiladi. “Oriyat” hikoyasida ham “Erkak” hikoyasi singari ikki detal muhim rol o‘ynaydi, asar qismlarini jisplashtiradi ammo, “Oriyat” hikoyasida tosh detali asarning shu qismida (bo‘z halta detali kirib kelishi bilan) o‘zining badiiy

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



funksiyasini bajarib bo‘lib, markazga bo‘z halta detali chiqib keladi (Qodiriyda uloq detali hikoya voqeligini o‘zida jamlab turadi). Bu esa o‘z navbatida N.Norqobilov uslubiga xos xususiyatlarni ko‘rsatadi.

Adib asarning cho‘qqisiga qadar bolaning harakatlari va o‘y-kechinmalarini tabiiy tasvirlab kelish bilan bir qatorda, qahramonning ruhiyatida sodir bo‘ladigan psixalogik o‘zgarishga ham chuqur zamin hozirlaydi. “So‘ng tutzor yoqasiga chiqib, olislab ketgan suvoriy ortidan alamnak tikilib qolarkan, g‘azab va nafrat deganlari ikki tomonlama bo‘lmay turib, qarshi tomonga qo‘l ko‘tarish g‘oyat dushvorligini o‘ylaydi, Xudodan Musa fermerga o‘ziga nisbatan qahr berishini so‘raydi” [2: 123]. Amma va bola o‘rtasidagi dialogdan so‘ng qahramon ongida kutilmagan o‘zgarish ro‘y beradi. Uni endi Muso fermaning darvozasiga yaqin borishga “yuzi chidamaydi”. Asar boshidagi bolalarcha oriyat endi chin ma‘nodagi yigit oriyatiga aylanadi.

Muzvudan chetga chiqib aytish mumkin-ki, yozuvchi «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasining 2014 yil 13-sonida “Oriyat” sarlovhasi bilan e‘lon qilingan hikoyasi keyinchalik “Chetdagi odam” nomi ostida nashr qilindi. Aslida hikoyaning birinchi nomi asar mazmunini o‘zida to‘la ifoda etadi. Adibning bu kabi sarlovhasi o‘zgartirilgan hikoyalari bir nechtni tashkil etadi. Dastlab “Ayriliq quvonchi” hikoyasi keyinchalik “Judolik quvonchi” nomi ostida e‘lon qiladi. Hikoyada yozuvchi asar markazida bola va uning kechinmalarini tasvirlaydi shuning uchun unga “Oriyat” deya nom qo‘yishi asar badiiyatini oshirishga xizmat qiladi. Lekin hikoya ikkinchi nomni, “Chetdagi odam” nomini olishi bilan esa yozuvchi nigohi, nuqtaiy nazari Muso fermaga ko‘chadi. Asar matnidan kelib chiqib qaraydigan bo‘lsak bu holat o‘zini oqlamaganligini ko‘ramiz. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak adib hikoyalarda sarlovhalari alohida tadqiq etiladigan mavzudir.

Yozuvchi Nabi Jaloliddinning o‘zgacha uslubi bilan kitobxonlar e‘tiborini qozongan “Erkagi bor uy” hikoyasida ham bola ruhiyati turmish ziddiyatlari fonida tasvirlanadi. Hikoya qahramoni birinchi navbatda to‘laligicha hayotdagi singari bola qiyofasida asarga olib kirilishi adib mahoratini dalillaydi. Adib asardagi qisqa ekspozitsiyadan tortib, raqib bilan to‘qnashuvigacha bo‘lgan barcha epizodlarda bolaning holatini “Uloqda”, “Erkak”, “Oriyat” hikoyalardagi singari tabiiy ko‘rinishda, qiyofada ustalik bilan tasvirlaydi. Bolaning har bir harakati hayot va badiiy haqiqat bilan uyg‘unlashib ketadi. Masalan, qahramon bolalarcha reja tuzib kurashga shaylanadi, oyog‘ini kesib tuz bosgandan so‘ng ham bolaligiga borib uyquga taslim bo‘lishi real haqiqatning badiiylikka yug‘rilgani ifodasidir. Ammo, oriyat, amal ustun kelib u raqibidan qast oladi. Muallif bolani ham uning ruhiyatini ham asar kulminatsiyasiga qadar puxta hozirlab keladi. Hikoyadagi har bir detal, har bir lavha tasvirida yozuvchining o‘tkir nigohi

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



ochiq ko‘rinib turadi. Asar qahramoni bola bo‘lsada biroq, unda bolalar adabiyotiga xos sarguzasht emas jasorat tasvirladi. Bolaning ayasi “qorong‘ulik qa‘ridan yorug‘lik sari chiqib kelayotgan o‘g‘lini [3: 531]” ko‘radi.

“Oriyat”, “Erkak”, hikoyalaridagi psixologik kayfiyat, ruhiy holat “O‘g‘il”, va “Xesh”da ham ko‘rinadi. Xususan “O‘g‘il”da biz nazarda tutgan jarayonning o‘zi kutilmaganda ro‘y berishi bilan o‘quvchi e‘tiborini tortadi. “Ayol o‘zi bilmagan holda oshkora qizg‘anib, qo‘lidagi idishni bola qolib, o‘z o‘g‘liga uzatib, dedi:

— O‘zi ozgina... ma, hadaha yutib ol!

Qo‘li muallaq qolgan bolaning ko‘ngli cho‘kdi, o‘zini yetti yot begonadek his etdi.” [2: 8]. Olisdagi qarindoshlari bilan Mo‘min qotmaga maqtanmoq ilinjidagi bola shu lahzaning o‘zida “jiddiy yigitchaga” aylanadi va uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi begonaning, Xosiyat momosining yaxshiligini anglab qoladi. Momo esa ertasi kuni uyiga bola emas yigit kishi kelganini uning ko‘zlaridan ilg‘ab, qaymoq o‘rniga et bilan siylaylash uchun hozirlik ko‘radi. Biroq, asarda (biz ta‘kidlagan kutilmagan o‘zgarish jarayoni) konfliktni yuzaga keltirgan, ziddiyatga olib boradigan sabablar chuqur asosga ega emasdek, psixologik kayfiyat yetarli darajada hozirlanmagandek ko‘rinadi o‘quvchiga. Lekin mullif “sukutning kuchini oshirish uchun so‘zsiz ifoda qilingan og‘ir ruhiy holatlarni atrofidagi [4: 52]” jonivorlar tiliga mohirona ko‘chiradi.

“Olam xira tortdi.

Borliq xunuk tus oldi.

Darvoza yonida yotgan it, ket, deganday hurdi.

Hovli yuzidagi xo‘roz itni ma‘qullaganday qichqirib qo‘ydi. [5: - <https://www.ziyouz.com>.]”

“Xesh” hikoyasida esa yigitcha ustoz Tog‘ay polvonning hikmatini anglashi bilan, o‘zini ham Misqal yangasini ham yengadi. Shu asnoda qahramon ruhiyatida burilish, o‘zgarish ko‘zga tashlanadi. Endi u ustoz singari polvonga ayladi. Hikoya qahramonidagi psixologik holat, o‘zgarish, aynan ustoz Tog‘ay polvonning hikmatini anglash barobarida vijudga keladi.

Ayni hikoyalardagi bola ruhiyati tasviri, yoki “Uloqda” hikoyasi kabi bolaning o‘lim bilan to‘qnash kelish holatini Normurod Norqobilovning “Judolik quvonchi” nomli hikoyasida ham kuzatamiz. N.Norqobilov ham hikoyada Qodiriy singari hayot va o‘limni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ammo, “Judolik quvonchi” hikoyasida bola biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan holatga yaqin kelsada “judolikdan quvonch” ko‘rishi bilan bolaligicha qoladi. U nimalarnidir anglab-anglamaganligi bilan yuqoridagi hikoyalar qahramonlaridan farqlanib turadi. Yani-ki qahramon ruhiyatida biz ta‘kidlagan bir lahzada, keskinlik bilan ro‘y beridigan psixologik jarayon

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



deyarli sodir bo‘lmaydi. “Biroq ular orasida faqat ikki kishigina chinakamiga yosh to‘kardi. Biri-Muso, ikkinchisi esa, bola. Ammo u Muso tog‘asi kabi ayriliqdan emas, quvonchdan yig‘lardi. Mana endi bovosini hech kim jerkimaydi, siltalamaydi, uyatga qoldiryapsiz, deb qo‘lidagi burda nonini tortib olmaydi. Bola ezilib-ezilib, quvonib-quvonib yig‘lardi [2: 191]”. Jumladan adibning “Butaloq” hikoyasida ham bola o‘zi uchun imkonsiz ishni uddalamoq niyatida yo‘lga o‘tlanadi. Biroq, ovuldoshlari tomonidan ortiga qaytarilayotganda esa bola o‘z o‘y-hayollari bilan bola holida tasvirlanadi. “...yo‘liga ilhaq termulib o‘tirgan enasini g‘amgin holatini beixtiyor ko‘z oldiga keltirarkan, uni qattiq sog‘inganini xis etdi... [2: 92]” Bulardan tashqari yozuvchini “O‘g‘ri”, “Olma o‘g‘risi” hikoyalarida ham bola ruhiyatida muhit bilan ziddiyat vujudga kelsada biroq buning natijasida psixologik burilish sodir bo‘lmaydi.

Xullas, A.Qodiriyning “Ulodqa”, N.Norqobilovning “Oriyat”, “Erkak”, “O‘g‘il”, “Xesh” va Nabi Jaloliddinning “Erkagi bor uy” asarlari konfliktli-rivoyaviy xususiyatiga ega va “bir hayotiy holat ichidagi o‘sinh, rivojlanish” [7: 205] kuzatilishi bilan novellistik xarakterdagi hikoyalardir. Ushbu hikoyalarda mualliflar tomonidan bola ruhiyatida sodir bo‘ladigan psixologik jarayon uchun puxta asos, zamin tayyorlashi natijasida, qahramon ruhiy olamida jiddiy o‘zgarishlar, burilishlar, evrilishlar ro‘y berishi nozik tasvirlar bilan beriladi.

“Erkak” hikoyasida Suyun tog‘aning, “Xesh”da Tag‘ay palvonning, “Erkagi bor uy”da Badal cholning va hatto “Oriyat”da Chori dononing gaplari hikoya qahramonlari uchun “turtki” yozuvchi uchun esa qahramon ruhiyatini yoritishda asos bo‘ladi. A.Qodiriyning “Ulodqa”, N.Norqobilov “Oriyat”, “Erkak” hikoyalarida badiiy voqelikni yaratishda detallardan mohirona foydalanadi.

Yuqorida hikoyalarning ko‘proq umumiy jihatlariga etibor qaratdik, ularning xususiy tomoni sifatida aytish mumkinki Qodiriyda bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar hayotiy voqealar vositasida yuzaga keladi. Shuningdek, “Erkak” va “Erkagi bor uy”da ham voqelik bilan vujudga kelgan bo‘lsa “Oriyat”da dialog, “O‘g‘il”da jarayon natijasida bo‘y ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy “Uloqda” - <https://www.ziyouz.com>
2. Normurod “Tanlangan asarlar” I jild, - 2022.
3. “XX asr o‘zbek hikoyalari antologiyasi”, Nabi Jaloliddin “Yerkagi bor uy”. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi-2016.
4. Alimuhammedov A. “Abdulla Qahhor hikoyalarida psihologik tasvir” Turon-iqbol-2011.
5. <https://www.ziyouz.com>.

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



75.	MILLIY INDEKTIKLIK MUAMMOSINING FALSAFIY JIHATLARI Turakulova Okila Amirkulovna	359
76.	MANTIQIY FIKRLATADIGAN FAOLIYAT To‘ychiyeva Mahfuza Umarkulovna	362
77.	O‘QUVCHILARGA YOZUVCHINING BADIY ASARDA TABIAT TASVIRIDAN FOYDALANISH MAHORATINI O‘RGATISHNING NOAN‘ANAVIY USULLARI Fozilova Mohigul Farxodovna	367
78.	MAKTABGACHA TA‘LIM BOSQICHIDA HADISLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI Maxliyo Xurramova Bahodir qizi	372
79.	AI-PROMPTING: TA‘LIMNING YANGI KOGNITIV KOMPETENSIYASI Nazokat Yusufjonova Nig‘madjon qizi	376
80.	HAYOTIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH DARSLARI – ADABIY TA‘LIMNING MUHIM SHAKLI Tojiboyev Bobir Raximjonovich	382
81.	ERTAK NAMUNALARI TAHLILIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING METOD VA USULLARI Abdusattorova Dilshodabegim	389
82.	ZAMONAVIY METODIKA FANINING INNOVATSION MOHIYATI Saribayeva Maxsuda Urinbayevna	393
83.	UMUMIY O‘RTA TA‘LIMDA ADABIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH: BADIY MATNLARNI SARALASH Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi	399
84.	ASSOTSIATIV YONDASHUV ASOSIDA ZAMONAVIY HIKOYA POETIKASI (Nodir Normatov va Isajon Sulton ijodi misolida) Niyazova Zilola Eshtemirovna	405
85.	“MIRKOMILBOYNING QAZO BO‘LGAN NAMOZI” HIKOYASI VOSITASIDA TARBIYAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHGA OID METODIK TAVSIYALAR Botirova Nigora Nurulla qizi	411
86.	UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI Anarboyev Javlonbek Nurkeldi o‘g‘li	416
87.	OLIM QOZOQBOY YO‘LDOSHEVNING O‘QITUVCHI-PEDAGOG SHAXSIGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLARI Yo‘ldasheva Mohinur Akram qizi	422
88.	O‘QUVCHILARNI MA‘NAVIY O‘RGANISH METODIKASI Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna	430
89.	ADABIYOT TA‘LIMIDA QIYOSLASH METODINING O‘RNI VA SAMARADORLIGI Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi	436
90.	BADIY ASARLARNI TARIXIY-ADABIY FAKTLAR ASOSIDA O‘RGANISH USULLARI Narziyeva Maftuna Abror qizi	442
91.	O‘ZBEKISTONDA VA JAHONDA MODERNISTIK ASARLARNING O‘QITILISH TARIXI VA TAJRIBASI Nomozova Dilobar Suyun qizi	451
92.	TUSHUNGANLIK ILLYUZIYASI FENOMENI VA UNI ANIQLASHNING DIAGNOSTIK MODEL: TARIXIY ROMANLARNI O‘QITISH MISOLIDA	456

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



	Saydullayeva Shoira Kaxramoq qizi	
93.	NABI JALOLIDDINNING “OTA” HIKOYASINI VIZUAL VOSITALAR ORQALI O‘QITISH Mahmuda Sobitova	463
94.	O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL O‘QISH FAOLIYATIDA INGLIZ ADABIYOTI NAMUNALARINI TAHLIL QILISH USULLARI To‘g‘onova Dinoraxon Mansurjon qizi	467
95.	ADABIYOT O‘QITUVCHISI PROFESSIONALIZMI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY TALQIN Abduqodirova Madina Rustamxo‘ja qizi	471
96.	BADIIY ASARLARNI ESHITISH ASOSIDA TAHLIL QILISH USLUBLARI Asroriddin Saydazimov	476
97.	EKOLOGIK SUD: “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANI MISOLIDA Dadabayeva Shohistaxon Zakirovna	479
98.	“NASOYIM UL-MUHABBAT” – BIR UMRLIK MA’NAVIY QO‘RIQCHI Norqulov Aziz O‘ktamqulovich,	485
99.	NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI Xayrullayev Azamat	490
100.	ALPOMISH TALQINLARIDA YANGICHA YONDASHUV O‘tkir Yo‘ldoshev	496
101.	TURKIY XALQLAR DOSTON VA RIVOYATLARIDA AFROSIYOBNING XARAKTERI Matquliyeva Marg‘uba Farxodovna	500
102.	O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUVNING MOHIYATI Mambetaliyev Qayrat Anarbay o‘g‘li	505
103.	“AMERIKA FOJIASI” ROMANIDA BADIIY DETALLAR TIZIMI Normatov Rixsimurod Qo‘chqor o‘g‘li	510
104.	ZULLISONAYN SHOIR RUBOIYOTI (Ahmad Tabibiy ruboiylari badiiyati xususida) Raximova Saboxat Raxmonqulovna	513
105.	HAMID OLIMJON IJODIDA MILLIY RUH G‘ayrat Majidov	517
106.	E‘TIQOD MASALALARI “SIROJUL MUSLIMIN” VA “SABOTUL-OJIZIN” ASARLARI QIYOSIDA Kenjaboy Gulruh	523
107.	ARAB TILIDA SIFATLAR TALQINI MASALASI Nizomjon Qodirqulov	527